

УДК 902.6

## **X-XII ASRLARDA USTRUSHONANING IXTISOSLASHGAN HUNARMANDCHILIGI HAQIDA**

**J. I. G'ofurov**

t.f.b. falsafa doktori (PhD)

**JDPI.**

**E-mail:** jgofurov@bk.ru

### **Аннотация**

Ushbu maqola IX-XII asrlarda Farg'ona va Ustrushonada tog'-kon sanoatining rivojlanish tarixi va o'zaro munosabatlariga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** Markaziy Osiyo, Ustrushona, Sog'd, Farg'ona, qora metallurgiya, Marsmand, Miq, Axsikent, arxeologik manbalar.

### **Аннотация**

Данная статья посвящена к историю развития и взаимосвязи горнорудного дела Ферганы и Уструшаны в IX-XII вв.

**Ключевые слова:** Центральная Азия, Уструшана, Согд, Фергана, чёрная металлургия, Марсманд, Мык, Ахсикент, археологические источники.

### **Annotation**

This article is devoted to the history of development and the relationship of mining Fergana and Ustrushana in the IX-XII centuries.

**Key words and phrases:** the Central Asia region, Ustrushona, Sogd, Fergana, Marsmand, Miq, ferrous metallurgy, Axsikent, archeological sources.

Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyo ikki daryo oralig'ining barcha viloyatlarida tog'-kon qazilma boyliklarini ochish, ularni qayta ishlash va bu orqali hunarmandchilikning turli sohalari uchun boy xom-ashyo bazasini yaratish ishiga katta e'tibor qaratilgan. Xususan, Farg'ona viloyatining Axsikent atrofidagi Nekad va Yuqori Nisa nomli mavzeldagi konlardan oltin, qalay, kumush, temir, mis, qo'rg'oshin, asbest, So'x atrofidan simob, O'zgandan nashatir, Isfara yaqinidan "qora tosh", ya'ni tosh ko'mir qazib olingani haqida yozma manbalarda

ma'lumotlar mavjud. Al-Istahriyning xabariga ko'ra, bu davrda Farg'onada hatto neft ham ishlab chiqarilgan va undan shahar, qishloqlar mudofaasi davrida maxsus qurol, sopol idishlarga solib otilgan "yonuvchi bomba" sifatida foydalanilgan [6: s.71].

Farg'ona bilan chegaradosh Iloq viloyatining Xojiston nomli mavzesi yaqinidagi konda osh tuzi qadoqlangan. Bu yerda ishlab chiqarilgan osh tuzi Choch-Iloq, Farg'ona va Xo'jand aholisi iste'mol ta'minoti uchun yetarli darajada bo'lgan. Shuningdek, Iloq bu davrda o'zining boy ruda konlari tufayli kumushqo'rg'oshin ishlab chiqarishga ixtisoslashgan muhim tog'-kon sanoati markaziga aylangan. Iloqning kumush konlari o'zining boy zahiralari va ishlab chiqarayotgan foydali qazilmalari hajmi bo'yicha Movarounnahrda yetakchi o'rinda turgan. Kumushdan tashqari Iloq tog'laridan olovbardoshli loy kaolingilbo'ta, tegirmontosh, feruza kabi foydali, yarim qimmatbaho tosh va metallar qazib olingan.

O'rta asr hunarmandchiligi bo'yicha xuddi shunday ma'lumotlar Sug'd, Baqtriya-Tohariston, Xorazm va albatta, Ustrushona uchun ham xos bo'lib, bu o'lkalarda tog'-kon ishlari, rudani qayta ishlash va eritish, metallardan qishloq ho'jalik qurollari va uy-ro'zg'or buyumlari, harbiy aslahalar yasash, to'qimachilik (paxta-ip, ipak, jun, tivit matolar), kulollik, yog'ochsozlik, teri va charmdan tikiladigan ashyolar, suv tegirmonchiligi, zargarlik keng miqyosda qo'llanilgan va rivojlangan. Ustrushonada ham hunarmandchilikning ko'plab turlari mavjud bo'lib, ularning ayrim sohalari bo'yicha – Bunjikat, Mink, Marsmand, Zomin, Dizak, Munchoqtepa, Sabat ixtisoslashgan markazlar sifatida faoliyat ko'rsatgan.

N.N. Negmatovning yozishicha, Yuqori Zarafshon vohasida qadimgi davrlardan oltin qazib olish yo'lga qo'yilgan. Bu faoliyat IV-X asrlarda ham davom etgan. Xitoy mualliflari va arab geograflari ma'lumotlarida bu haqida atroflicha bo'lsada ma'lumotlar bor. Xususan, Xitoy xronikalaridan biri "Beyshi"da Mi (Maymurg') viloyatining sharq tomonidagi tog'lardan (Yuqori

Zarafshon) a'lo sifatli oltin qazib olinishi qayd etilgan. Yana bir Xitoy xronikasi "Suy-shu" ma'lumotiga qaraganda, Kan (Sug'd) davlati hududidagi tog'lardan ko'p miqdorda oltin qazib olingan. Al-Yaqubiyning yozishicha, Sug'd daryosi (Zarafshon) suvi tarkibida oltin bo'lib, Xurosonda bu darajada ko'p oltin mavjud bo'lmagan [6: s.92].

Ibn Xordadbeh oltin olishning eng oson va sodda usulini yozib qoldirgan. Uning yozishicha, Vahad qishlog'i aholisi Jayxun daryosi qirg'og'iga kelib echki terisi sirtini yuqoriga qaratib yozishadi va uning atrofiga qoziqlar qoqib terini qoziqlarga mahkam bog'lashadi. So'ngra bir kishi daryoga tushib suvni loyqalatadi, ikkinchisi ushbu loyqa suvni echki terisi ustiga sepadi. Bu ish jarayoni echki terisi qum va boshqa jinslar bilan to'lib og'irlashgunga qadar davom etadi. Keyin esa echki terisi yechib olinib quyosh tig'ida quritiladi. Yaxshi qurigan echki terisini charm to'shama ustiga qoqiladi va to'planib qolgan oltin zarralari yig'ib olinadi [6: s.92]. Darvoqe, etnografik ma'lumotlarga ko'ra, bu usuldagi oltin olish Zarafshonning quyi oqimida XIX-XX asr boshlarida ham qo'llanilgan.

Xitoy yozma manbalarida arab xalifaligi istilosiga qadar Movarounnahr aholisi ibodatxonalaridagi oltin sanamlar, butlar va turli ashyolar, podshohlar qasridagi oltin taxtlar haqida ma'lumotlar mavjud. Bu ma'lumotlarni arab geograflari ham o'z asarlarida takrorlashgan va tasdiqlashgan.

Arab istilosining ikkinchi bosqichi Qutayba ibn Muslim (704-715y) davrida mahalliy konlardan ishlab chiqarilgan Movarounnahrning shahar va qishloqlaridagi oltin, kumush, ulardan yasalgan but va sanamlar eritilib xalifalik xazinasiga tashib ketilgan.

Yana bir qator geograflarning tasdiqlashlaricha, Zarafshon suvidan tashqari tog'-kon hunarmandchiligi bo'yicha Buttamda ham faol ishlar olib borilib, u yerdan oltin qazib olingan. Al-Muqaddasiyning yozishicha, Ustrushonadan Xuttalga boradigan tog' yo'li yoqasidagi konlardan ham oltin qazib olingan. Ushbu muallif Ustrushonaga qarashli Xasht shahri yaqinidan, shuningdek, Buttamdan kumush ham qazib olingani haqida xabar beradi. Ba'zi ustrushonashunoslar,

jumladan, biz ham Xasht shahri hozirgi Eski Xovos shahar yodgorligi (Xovos tumani) o'rnida faoliyat ko'rsatgan, deb hisoblaymiz[5: 292b].

O'zbekistonda 1943-1944 yillarda Farhod kanali qurilishi paytida o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlarning topilmalariga qaraganda, mahalliy va ehtimol, Qoramazor va Farg'ona tog'-kon ishlari xom ashyo bazasi asosida

Shimoliy Ustrushonada zargarlik san'ati rivojlangan va bu sohaning markazi Munchoqtepada vujudga kelgan. Munchoqtepaning ilk qurilish qatlamlaridan to'q kul rangli slanets toshidan yasalgan, ikki palladan iborat isirg'a quyish qolipi topilgan. Tosh qolipning ichki tomoniga bir-biriga aynan o'xshash bir juft isirg'aning shakli va uni eritilgan metall bilan to'ldirish uchun kanalcha o'yib tushirilgan. Qolipning ikki pallasi ikkita metall burama bilan bir-biriga mahkam tutashtirilgan. Demak, dastavval o'troq dehqon aholining qishloq makoni bo'lgan Munchoqtepa o'zining geografik joylashuviga muvofiq, ya'ni Farg'ona vohasi hamda Choch-Iloq xalqlari bilan yaqin qo'shnichilik aloqalari tufayli savdo-sotiq markaziga aylangan. Bunga sabab karvon savdosi yo'li yoqasidagi joylashganligi. Bu yerda, nafaqat, ishlab chiqarishga oid hunarmandchilik mahsulotlari, balki qimmatbaho metallardan tayyorlangan zargarlik buyumlari ham yasalgan. Buning uchun esa yuqorida qayd etilgan qoliplar muhim ahamiyat kasb etgan [2: s.100109].

Munchoqtepa yaqinida joylashgan Shirinsoy qabristonini ochib o'rgangan V.F. Gaydukevich guruhi qimmatbaho va yarim qimmatbaho metallardan, aksariyat hollarda quyma usulida yasalgan bir qator zargarlik buyumlarini topishga muvaffaq bo'ladi. Mozorqo'rg'onlardan topilgan bronzadan quyilgan qo'ng'iroqchalar, simsimon, o'rama bilakuzuklar, uzuklar (ba'zi uzuklar temirdan yasalgan) bir tomoni yopiq quvurcha shaklidagi pichoq dastalari topilgan. Ushbu topilmalarning aksariyati ayollar qabridan topilgan va shu sababli, mualliflar qo'ng'iroqchalarni ayollarning sochlariga taqilgan zeb-ziynat buyumlari, deb e'tirof etishgan [3: s.332].

Shuningdek, alohida ahamiyatga molik moddiy madaniyat namunalaridan navbatdagisi, Farhod kanalining chap qirg'og'ida o'tkazilgan qazishmalar paytida

topilgan oltin taqinchoqlar va zeb-ziynat buyumlaridir. Dumaloq quticha shaklidagi isirg'a ingichka oltin sim-plastinkada yasalgan bo'lib, uning ustiga odam yuzi tasviri chizilgan. Bundan tashqari, topilmalar orasidagi oltin simdan yasalgan o'rama uzuk, turli naqshlar tushirilgan plastinkalar, quyma medal<sup>1</sup>ning ikkita feruza toshi bilan bezatilgan oltin zanjiri kabi zargarlik buyumlari ham diqqatga sazovordir. Ushbu topilmalarni o'rgangan S.K.Kabanovning ta'kidlashicha, barcha topilmalarning kimyoviy tarkibi bir xil bo'lib, bu omil xom-ashyoni bir yerda ishlab chiqarilganini tasdiqlaydi va ular yagona zargarlik ustaxonasida yasalgan [4: s.71-81].

Munchoqtepa zargarlari, nafaqat qimmatbaho metallardan, balki serjilo hisoblanuvchi serdolik, feruza, qora xrustal, la'l kabi yarim qimmatbaho toshlardan ham taqinchoqlar, nafis buyumlar yasaganlar. Bu xom-ashyolar Ustrushona bilan Farg'ona chegarasidagi tog'lardan olingan. Bu yarim qimmatbaho toshlardan asosan munchoqlar, uzuklar yasalgan, yoki oltin va kumush taqinchoqlarni bezatishda ulardan foydalanilgan [6: s.94].

Ustrushonaning iqtisodiy hayoti va qishloq xo'jaligi taraqqiyoti uchun uning hududidan katta hajmda temir rudasini qazib chiqarilishi va uni qayta ishlab asbob-uskunalar, mehnat anjomlari va ayniqsa harbiy qurol-aslahalar yasalishi muhim ahamiyat kasb etgan. Xitoy xronikasi "Bey-shi"da qayd etilishicha Mi (Maymurg') viloyatining sharq tomonida joylashgan tog'lardan (ya'ni Ustrushona hududidagi Turkiston tog'laridan) ko'p miqdorda temir rudasi qazib olingan.

Xuddi shunday ma'lumotni "Hudud al-Olam"ning noma'lum muallifi ham qayd etadi. Ibn Xavqal esa Ustrushonaning Mink rustoqi va uning yaqinidagi Marsmand mavzeida qazib olinadigan temir rudasi va undan tayyorlanadigan harbiy qurollar haqida xabar beradi.

Mink va Marsmandda qazib olingan rudalarning katta qismi o'z joyida qayta ishlangan va ulardan harbiy qurol-aslahalar yasalgan. Bu qurollarning sifat darajasi nihoyatda yaxshi bo'lib, ular Movarounnahr<sup>2</sup>dan tashqari Xuroson, Iroq va Bag'dodga qadar tarqalgan. Ibn Xavqal bu yerda temirning ko'pligi, temirchi

ustalarning yuksak malakasi va ijodkorligi tufayli aql bovar qilmaydigan, hayratlanarli buyumlar yasalayotgani haqida xabar beradi [5: 294-b].

Mink va Marsmandda tayyorlangan harbiy qurol-aslahalar haqiqatan ham Xuroson va Iroqgacha bo'lgan hududlarga karvon savdosi orqali olib borib sotilgan bo'lsa, demak ushbu ashyolarning sifati nihoyatda yuqori darajada bo'lgan. Chunonchi, xalifalik poytaxti Bag'dodga qadar dovruq taratgan

Ustrushona ustalarining sof temir va po'latdan yasalgan mahsulotlari o'zining raqobatbardoshligi bilan ajralib turgan.

Mink va Marsmand temirchiligi bo'yicha V.V. Bartol'd biroz boshqacha fikr bildirgan. Uning aytishicha, Mink va Marsmandda tayyorlangan temir yarim fabrikant shaklida Farg'onaga olib ketilgan va u yerda xom-ashyodan yuqori sifatli buyumlar tayyorlangan [1: s.169]. Lekin, yuqorida qayd etilgan yozma manbalar ma'lumotida bunday xabar yo'q. Ustrushonada tayyorlangan temir va po'lat xom ashyo sifatida eng avvalo qo'shni viloyatlar bozoriga chiqarilgan bo'lishi mantiqan to'g'ri. Shunga qaraganda, Farg'ona, xususan, Axsikent va Xo'jand temirchi, qurolsoz ustalari yuqori sifatli Ustrushona temir mahsulotlarini sotib olib undan turli buyumlar, jumladan harbiy qurol-aslahalar ishlab chiqargan bo'lishlari ehtimoldan uzoq emas.

Shunday qilib, xulosa qilishimiz mumkinki, birinchidan: Ustrushonaning tog'li hududida joylashgan Mink rustoqi va uning yaqinidagi Marsmand shaharchasi o'rta asrlarda Turon zaminining yirik temirchilik markazi sifatida faoliyat ko'rsatgan. Ikkinchidan: ushbu davrlarda Ustrushonada mahalliy xom ashyolar bazasi negizida zargarlik hunarmandchiligi rivojlanib yuksak darajali san'at darajasiga ko'tarilgan. Aslida ushbu hunarmandchilikka Munchoqtepadan topilgan zargarlik qolipiga qaraganda, Ustrushonada kamida antik davrda asos solingan. So'nggi o'rta asrlarga oid yozma manbalarda O'ratepa zargarlari haqida ma'lumotlar mavjud, Jizzaxda esa hatto Zargarlik nomli mahalla faoliyat ko'rsatgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч. I. Москва. 1963.
2. Гайдукевич.В.Ф. Работы Фархадской археологической экспедиции Узбекистана в 1943-1944 гг. (Предварительное сообщение) // КСИИМК. Вып.XV.-Москва-Ленинград, 1947.
3. Гайдукевич.В.Ф. Могильник близ Ширинская в Узбекистане // СА. -№ XIV. Москва, 1952.
4. Кабанов С.К. Археологические находки на Фархадстрое. // Известия УзССР. №5. –Ташкент. 1948.
5. Pardayev M.H., G'ofurov J.I. Ustrushonaning ilk o'rta asr qishloq makonlari (yozma va arxeologiya manbalari asosida). Toshkent, 2016.
6. Негматов. Н.Н. Уструшана в древности и ранне средневековья. – Сталинабад, 1957.